



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No 1

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

**1-jild
1-son
yanvar, 2026**

**January, 2026
Volume 1
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik (Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor)

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi
Service sector and tourism
Сфера услуг и туризм



UDK: 331.526:338.46

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.40>

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA YANGI ISH O'RINLARINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОЗДАНИЯ НОВЫХ РАБОЧИХ МЕСТ В СФЕРЕ УСЛУГ

Абдусаидов Акмал Абдувалиевич

MAIN DIRECTIONS OF CREATING NEW JOBS IN THE SERVICE SECTOR

Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich

Received: January 12, 2026 Revised: January 16, 2026 Accepted: January 21, 2026 Published: February 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini yaratishning asosiy yo'nalishlari, mehnat bozori transformatsiyasining zamonaviy tendensiyalari va xizmatlar segmentida bandlikni kengaytirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy, institutsional hamda raqamli omillar ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda xizmatlar tarmog'idagi tarkibiy o'zgarishlar, kichik biznes va tadbirkorlikning roli, masofaviy mehnat shakllarining kengayishi, xizmatlar diversifikatsiyasi va davlat dasturlarining bandlikka ta'siri o'rganiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sektorida yangi ish o'rinlari yaratilishining drayverlari raqamli texnologiyalar, urbanizatsiya jarayonlari, aholi real daromadlari o'sishi hamda institutsional islohotlar bilan bevosita bog'liqdir.

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi, bandlik, yangi ish o'rinlari, mehnat bozori, raqamli transformatsiya, xizmatlar diversifikatsiyasi, tadbirkorlik, kichik biznes, bandlik siyosati, xizmatlar sektori innovatsiyasi.

Аннотация: В статье представлен научный анализ основных направлений создания новых рабочих мест в сфере услуг в Узбекистане, современных тенденций трансформации рынка труда, а также экономических, институциональных и цифровых факторов, способствующих расширению занятости в сфере услуг. В исследовании рассматриваются структурные изменения в сфере услуг, роль малого бизнеса и предпринимательства, расширение удалённых форм работы, диверсификация услуг и влияние государственных программ на занятость. Результаты показывают, что драйверы создания новых рабочих мест в сфере услуг напрямую связаны с цифровыми технологиями, процессами урбанизации, ростом реальных доходов населения и институциональными реформами.

Ключевые слова: сфера услуг, занятость, новые рабочие места, рынок труда, цифровая трансформация, диверсификация услуг, предпринимательство, малый бизнес, политика занятости, инновации в сфере услуг.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the main directions of creating new jobs in the service sector in Uzbekistan, modern trends in labor market transformation, and economic, institutional, and digital factors contributing to the expansion of employment in the service segment. The study examines structural changes in the service sector, the role of small business and entrepreneurship, the expansion of remote work forms, diversification of services, and the impact of government programs on employment. The results show that the drivers of creating new jobs in the service sector are directly related to digital technologies, urbanization processes, growth in real incomes, and institutional reforms.

Keywords: services sector, employment, new jobs, labor market, digital transformation, service diversification, entrepreneurship, small business, employment policy, service sector innovation.

■ KIRISH

Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo'lib, mehnat bozori barqarorligiga, aholi daromadlari o'sishiga va iqtisodiy faollikni kengaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda

dunyoning ko'plab mamlakatlarida xizmatlar sektorining YAIMdagi ulushi 60–80 foizni tashkil etmoqda. OECD, Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqotlariga ko'ra, xizmatlar sohasi yuqori mehnat sig'imi, moslashuvchan bandlik shakllari va innovatsion xizmat turlarining shakllanishi tufayli yangi ish o'rinlarini yaratishda eng samarali yo'nalish hisoblanadi.



O'zbekistonda ham so'nggi yillarda xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi ulushi izchil oshib bormoqda. Xizmatlar hajmi 2023-yilda 350 trln so'mdan oshdi, bandlikning qariyb 55 foizi aynan mazkur tarmoqqa to'g'ri kelmoqda. Urbanizatsiya jarayonlari, aholi real daromadlarining o'sishi, raqamli xizmatlarga bo'lgan talabning oshishi, transport-logistika tizimining kengayishi hamda turizmning tiklanishi bu sohada yangi ish o'rinlarini yaratish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda.

Davlat siyosatida ham xizmatlar sektorini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, biznesni qo'llab-quvvatlash, mehnat bozorini moslashtirish, yoshlar va ayollar bandligini kengaytirish, yangi xizmat turlarini rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyotning imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlarini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda eng dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida keng yoritilgan bo'lib, olimlar ushbu jarayonni mehnat bozorining transformatsiyasi, raqamli iqtisodiyotning kengayishi va xizmatlar diversifikatsiyasi bilan izohlaydilar. Xususan, D.Bell, A.To'ffler, F.Maklau kabi postindustrial jamiyat nazariyotchilari xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi ustunlikka chiqishini ilmiy asoslab, bandlikning ko'proq xizmatlar sektoriga ko'chib borishini iqtisodiy taraqqiyotning tabiiy bosqichi deb hisoblaydi. Ularning fikriga ko'ra, iqtisodiyotning xizmatlar bosqichiga o'tishi yangi xizmat turlarini shakllantiradi, bu esa o'z navbatida mehnat sig'imi yuqori bo'lgan yangi kasb va bandlik turlarini yaratadi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan, OECD, Jahon banki va ILO tomonidan e'lon qilinayotgan hisobotlarda xizmat ko'rsatish sohasining ish o'rinlari yaratish bo'yicha global drayverga aylangani qayd etiladi. OECD Employment Outlook hisobotida xizmatlar sektorining yillik bandlik o'sishi boshqa tarmoqlarga nisbatan 2–3 baravar yuqoriligi, ayniqsa transport-logistika, turizm, IT-xizmatlar va elektron tijoratda yangi kasblar shakllanayotgani ta'kidlanadi. ILO esa platformaviy mehnat, gig-ekonomika, masofaviy ish shakllarining xizmatlar sektorida yangi va moslashuvchan bandlik imkoniyatlarini yaratishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Xizmatlar iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi haqida Don Tapscott, E.Brynjolfsson kabi olimlarning ishlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular raqamli texnologiyalar xizmatlar bozorida yangi bandlik segmentlarini yaratishini amaliy misollar bilan ko'rsatadi. Xususan, elektron tijorat logistikasidagi ishchilar, fintech mutaxassislari, onlayn ta'lim instruktorlari, SMM mutaxassislari, raqamli marketing bo'yicha ekspertlar va virtual xizmat operatorlari kabi yangi kasblarning paydo bo'lishi bevosita raqamlashtirish jarayonlari natijasidir.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham xizmatlar sektorining bandlikdagi o'rni alohida tadqiq qilingan. A.Qodirov, Q.Abduraxmonov, G'.Rahimov, N.Qo'chqorova kabi olimlar xizmatlar sohasini ish o'rinlari yaratishda eng moslashuvchan va samarali segment sifatida baholaydilar. Ular O'zbekiston xizmatlar sektorida bandlik o'sishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida: tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi, kichik biznesning kengayishi, xizmatlar turlarining diversifikatsiyasi, ayollar va yoshlar bandligini rag'batlantirish dasturlari, norasmiy bandlikning qisqarishi va xizmatlar infratuzilmasining rivojlanishini ko'rsatadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu tadqiqotning metodologiyasi xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish jarayonini tizimli, kompleks va ilmiy yondashuvlar asosida o'rganishga qaratilgan bo'lib, xizmatlar sektorida bandlikning shakllanishi, uning tarkibiy o'zgarishlari, mehnat bozoridagi transformatsiya jarayonlari va yangi xizmat turlarining paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama tahlil qilishni nazarda tutadi. Metodologiya mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirgan holda shakllantirilgan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmat ko'rsatish sohasi mehnat bozorining eng moslashuvchan va eng tez rivojlanayotgan segmenti bo'lib, yangi ish o'rinlari yaratishning eng samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tajribada xizmatlar sektorining YAIMdagi ulushi 60–80 foizni tashkil etayotgan davlatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mehnat bozorida barqaror bandlikni ta'minlashda xizmatlar sohasi asosiy rolni o'ynaydi. Sababi, xizmatlar jismoniy ishlab chiqarishga qaraganda ko'proq mehnat sig'imiga ega, xizmat ko'rsatish jarayonida inson omilining ulushi yuqori bo'ladi va xizmat turlarining xilma-xilligi yangi kasblarning paydo bo'lishiga imkon yaratadi.

O'zbekistonda 2020–2024 yillar davomida xizmatlar sektorining hajmi sezilarli darajada oshib, mehnat bozori tarkibida xizmatlar ulushi 55 foizdan ortdi. Bu sektor iqtisodiyotning eng yirik ish beruvchisi sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Transport-logistika, turizm, savdo, IT, moliyaviy xizmatlar va ta'lim xizmatlari kabi segmentlar aholining bandligini ta'minlashda etakchi o'rin tutmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi esa yangi xizmat turlarining yaratilishiga va zamonaviy bandlik shakllarining paydo bo'lishiga asos yaratmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar IT-xizmatlar bozorining o'sishiga sabab bo'ldi. Onlayn platformalar, elektron savdo, mobil ilovalar, raqamli to'lov tizimlari va masofaviy xizmat ko'rsatish turlarining rivojlanishi xizmatlar sektorida yuzlab yangi kasb va bandlik segmentlarini yaratmoqda.



1-rasm. IT-xizmatlar orqali yangi ish o'rinlari shakllanishi

Gig-ekonomika (freelance), masofaviy ish, onlayn ta'lim va onlayn konsalting shakllarining kengayishi xizmatlar sektorida moslashuvchan bandlikni kuchaytirdi. Bu ayniqsa yoshlar bandligini oshirishda muhim omil bo'lib kelmoqda.

Urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi, elektron tijoratning kengayishi va iste'mol bozoridagi talabning

ortishi transport-logistika sohasida yangi ish o'rinlari yaratishning asosiy drayveriga aylandi. 2020–2024-yillarda etkazib berish va logistika xizmatlarining hajmi yiliga 15–18 foizga oshgani bandlikning tez sur'atlarda kengayishini anglatadi.




2-rasm. Transport-logistika va etkazib berish xizmatlari sohasida yangi ish o'rinlarini shakllanishi

Elektron savdoning kengayishi logistika sektorini eng ko'p ish o'rinlari yaratayotgan tarmoqlardan biriga aylantirdi.

O'zbekistonda turizmnining tiklanishi va davlat tomonidan mazkur sohani milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish bo'yicha amalga

oshirilayotgan islohotlar xizmatlar sektorida yuzlab yangi ish o'rinlarining yaratilishiga olib kelmoqda. Turistik xizmatlar diversifikatsiyasi – madaniy turizm, ziyorat turizmi, gastronomik turizm, ekoturizm, agroturizm – yangi kasblar shakllanishini rag'batlantirdi.



3-rasm. Turizm va mehmonxona xo'jaligida yangi ish o'rinlarini shakllanishi

Aholi daromadlarining oshishi, urbanizatsiya jarayonlari va iste'mol xizmatlariga talabning o'sishi maishiy xizmatlar bozorida yangi kasblarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Servis xizmatlari kichik biznes va mikrotadbirkorlik uchun eng qulay segmentlardan biri bo'lib, uy-joy ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish, go'zallik saloni xizmatlari, avtomobil servisi va maishiy texnika ta'miri kabi yo'nalishlarda yangi ish o'rinlari yaratmoqda.

Ushbu segmentning afzalligi – boshlang'ich investitsiya talablari kam, bandlikni tez yaratish imkoniyati yuqori.

Raqamli moliya tizimi, mobil banking, elektron hamyonlar, QR-to'lovlar va mikroservis platformalari moliyaviy xizmatlar bozorida yangi kasblar shakllantirmoqda. Bank sohasida avtomatlashtirilgan xizmatlar sonining ortishi bilan birga yangi kasblar – fintech analitik, xavfsizlik mutaxassisi, mijozlar bilan ishlash operatori, scoring-menejer – shakllanmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini shakllantirish ko'p omillarning o'zaro ta'siri asosida yuzaga keladigan murakkab iqtisodiy jarayon hisoblanadi. So'nggi yillarda raqamlashtirishning jadal sur'ati ushbu jarayonning eng muhim drayverlaridan biriga aylandi. Xizmat ko'rsatish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, elektron to'lov tizimlari, sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar, onlayn platformalar va mobil ilovalar xizmat ko'rsatish vaqtini sezilarli darajada qisqartirib, mehnat samaradorligini oshirmoqda. Bu esa xizmat ko'rsatish tizimida yangi mehnat yo'nalishlarining – raqamli marketing mutaxassisi, onlayn-xizmat operatori, ma'lumotlar tahlilchisi, platforma menejeri kabi kasblarning shakllanishiga olib kelmoqda. Raqamlashtirish nafaqat mavjud xizmat jarayonlarini optimallashtirmoqda, balki gig-ekonomika, masofaviy mehnat, freelancing va platformali bandlik kabi yangi ish shakllarini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligida elektron xizmatlar orqali daromad olishning imkoniyatlari sezilarli ravishda kengaymoqda.

Yangi ish o'rinlarining ko'payishi demografik jarayonlar, urbanizatsiya sur'atlari va iste'mol talabi o'zgarishlari bilan bevosita bog'liqdir. Aholi sonining o'sishi va shaharlar kengayishi natijasida transport-logistika, maishiy xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, elektron tijorat, turizm kabi yo'nalishlarda xizmat ko'rsatishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Aholi daromadlarining o'sishi esa sifatli, qulay va tezkor xizmatlarga bo'lgan talabni yanada kuchaytirib, xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilmoqda. Bu jarayonlar natijasida xizmatlar sektori mehnat bozoriga kirish uchun moslashuvchan va imkoniyatlarga boy soha sifatida shakllanib bormoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasida bandlik samaradorligi ko'p jihatdan kadrlar tayyorlash tizimining sifatiga bog'liq. Zamonaviy xizmatlar bozori xodimlardan yuqori darajadagi kommunikativ ko'nikmalar, mijoz bilan ishlash madaniyati, axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati va yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. 2024-yilda xizmatlar sektorida faoliyat yuritayotgan xodimlarning 43 foizi malaka oshirish dasturlarida ishtirok etgani mazkur jarayonning ahamiyatini tasdiqlaydi. Dual ta'lim tizimining joriy etilishi, amaliyot markazlarining faoliyati va kompaniyalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan o'quv dasturlari mehnat bozorining raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlanishiga xizmat qilmoqda.

2020–2024-yillarda O'zbekiston xizmatlar sektorida bandlik dinamikasi tarmoqlar bo'yicha sezilarli farqlar bilan namoyon bo'ldi. Eng yuqori sur'atlarni ko'rsatgan tarmoqlardan biri bu elektron tijorat bo'lib, 4 yil ichida bandlik hajmi 4 martadan ko'proq oshdi. Bu holat pandemiyadan keyingi davrda iste'molchilarning onlayn xaridlarga o'tishi, etkazib berish xizmatlarining ommalashuvi va mahalliy e-commerce platformalarning kengayishi bilan izohlanadi. Elektron tijoratning keskin o'sishi gig-ekonomika, kur'erlik xizmatlari, onlayn sotuvchilar, platforma operatorlari kabi yangi kasb turlari paydo bo'lishiga olib keldi.

O'zbekiston xizmatlar sektorida yangi ish o'rinlarining shakllanishi, 2020–2024-yillar (%)

Tarmoq / Yo'nalish	2020	2021	2022	2023	2024	O'rtacha yillik o'sish
Transport-logistika	16%	17%	18%	18%	19%	16–18 %
Turizm va mehmonxona xizmati	21%	23%	24%	25%	26%	21–25 %
Elektron tijorat	35%	70%	140%	200%	300%	4 baravar o'sish
Axborot texnologiyalari (IT)	20%	21%	22%	23%	24%	20–23 %
Maishiy xizmatlar	8%	10%	12%	13%	14%	Uzluksiz ko'tarilish

Turizm sektori ham o'sishning yuqori sur'atlariga ega bo'lib, 2020–2024-yillarda yillik 21–25 % atrofida bandlik o'sishi kuzatildi. 2023–2024-yillarda bu ko'rsatkich yanada oshgan bo'lib, vizasiz rejimlarning kengayishi, turistik infratuzilmaning modernizatsiyasi va ichki turizmning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Mehmonxona, restoran, transport, gidlik, bron tizimlari, tur paketlar logistikasida qo'shimcha ish o'rinlari yaratildi.

Transport-logistika sektori ham barqaror va yuqori o'sish sur'atlarini namoyish etdi. Yillik o'sish 16–18 % oralig'ida bo'lib, 2024-yilda ko'rsatkich 19 % ga etdi. Buning asosiy sabablari: xalqaro tranzit yo'laklarining kengayishi, "Yagona bojxona oynasi" tizimlarining joriy etilishi, pochta tizimining elektron boshqaruvi, shuningdek e-commerce bilan integratsiya qilingan logistika xizmatlarining jadal rivoji.

Axborot texnologiyalari sektorida bandlikning 20–23 % o'sishi raqamli iqtisodiyotning sur'atlari bilan izohlanadi. Dasturlash, IT-xizmatlar eksporti, BPO markazlari, texnoparklar, startaplar hamda raqamli xizmatlarga bo'lgan talabning o'sishi ushbu yo'nalishda yangi ish o'rinlarini kengaytirmoqda.

Maishiy xizmatlarda bandlikning yilma-yil uzluksiz ko'tarilishi kuzatiladi. 2020–2024-yillarda o'sish 8 % dan 14 % gacha oshgan bo'lib, aholi daromadining ortishi, xizmatlar bozorining kengayishi va kichik tadbirkorlikning rivojlanishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, statistika shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston xizmatlar sektorida yaratilgan yangi ish o'rinlari mamlakat iqtisodiyotida bandlikning asosiy o'sish manbai sifatida shakllandi. 2024-yil yakuni bo'yicha xizmatlar sohasi umumiy bandlikning 55 % dan ortiq qismini tashkil etdi. Bu O'zbekiston mehnat bozorida xizmatlar sektorining etakchi rolgga ega bo'layotganini tasdiqlaydi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning 2020–2024-yillar davomida amalga oshirgan iqtisodiy va institutsional islohotlari xizmatlar sektorini mehnat bozorining eng yirik va dinamik tarkibiy qismiga aylantirdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sektori bandlik hajmi bo'yicha sanoat va qishloq xo'jaligidan ustun mavqeni egallab, mamlakat bo'yicha yaratilgan yangi ish o'rinlarining 55 foizdan ortig'ini ta'minlamoqda. Transport-logistika, turizm, elektron tijorat, IT xizmati va maishiy xizmatlar kabi yo'nalishlar yangi bandlikning asosiy o'sish nuqtalariga aylandi.

Raqamlashtirish jarayoni xizmatlar sektorida mehnat samaradorligini oshirish bilan birga, yangi kasblar va moslashuvchan bandlik shakllarini

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

shakllantirdi. Elektron tijoratning keskin o'sishi (to'rt baravarga yaqin), turizm bandligining 25 % gacha rivojlanishi, IT xizmatlarining yillik 20–23 % o'sishi xizmatlar iqtisodiyotining innovatsion xarakterga ega bo'layotganini ko'rsatdi. Shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimining yangilanishi, malaka oshirish dasturlarining kengayishi hamda mehnat resurslarining raqamli kompetensiyalar bilan boyishi bandlik samaradorligining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", imtiyozli kreditlar, soliq engilliklari, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma elementlari xizmat ko'rsatish sektorida tadbirkorlik faolligini kuchaytirgan va minglab yangi ish o'rinlari shakllanishiga imkon yaratgan. Demak, xizmatlar sektoridagi bandlikning o'sishi O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish, aholining daromadlarini ko'paytirish va barqaror mehnat bozori infratuzilmasini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish jarayonini yanada jadallashtirish uchun, avvalo, raqamli transformatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish zarur. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulut texnologiyalari, raqamli to'lov tizimlari va platformali xizmatlar kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish xizmatlar sektorida nafaqat mehnat samaradorligini oshiradi, balki yangi bandlik yo'nalishlarining shakllanishiga ham zamin yaratadi. Shu bois, xizmatlarning avtomatlashtirilgan modellarini keng joriy etish orqali mehnat unumdorligini oshirish va zamonaviy kasblar segmentini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Xizmatlar sektorida yangi ish o'rinlarini shakllantirish jarayonida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish ham muhim o'rin tutadi. Mehnat bozorining talablari o'zgarib borayotgani, xodimlardan raqamli savodxonlik, mijoz bilan ishlash ko'nikmalari, kommunikativ kompetensiyalar hamda xizmat madaniyati bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni talab qilayotgani sababli, malaka oshirish tizimlarini kengaytirish, qisqa muddatli amaliy kurslarni yo'lga qo'yish va dual ta'lim tizimini yanada kuchaytirish dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, ta'lim muassasalari va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali bozor talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mumkin.

Hududlar kesimida xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilish ham yangi ish o'rinlarini ko'paytirishda muhim omil bo'lib, ayniqsa turizm, logistika, savdo, maishiy xizmatlar va IT yo'nalishlarida



o'sish salohiyati yuqori. Shu sababli kichik shahar va qishloqlarda servis infratuzilmasini rivojlantirish, hududiy xizmat markazlari, IT-parklar, turistik klasterlar va logistika tugunlarini tashkil etish orqali bandlik imkoniyatlarini sezilarli kengaytirish mumkin.

Yana bir muhim yo'nalish sifatida xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish lozim. Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, soliq engilliklari va "Bir oyna" tamoyili asosidagi tezkor ro'yxatdan o'tkazish tizimi xizmatlar sektorida yangi biznes subyektlari sonining oshishiga turtki bermoqda. Ushbu mexanizmlarning barqaror ishlashi yangi ish o'rinlarining muntazam ravishda yaratilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, yangi xizmat turlarini yaratish va innovatsion biznes g'oyalarni qo'llab-quvvatlash uchun grantlar va startap akseleratsiya dasturlarini ham kengaytirish zarur.

Bundan tashqari, mehnat bozorida moslashuvchan bandlik shakllarining – masofaviy mehnat, gig-ekonomika, freelancing va qisqa muddatli kontrakt mehnatining – huquqiy asoslarini mustahkamlash xizmatlar sektorida bandlikning yangi modelini shakllantirishga yordam beradi. Bu ayniqsa yoshlar, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Shuningdek, xizmatlar sektorida yaratilayotgan yangi ish o'rinlarining samaradorligini muntazam baholash tizimini yo'lga qo'yish lozim. Bu maqsadda kompleks monitoring indikatorlari, bandlik samaradorligi indekslari, hududiy xizmatlar salohiyati reytinglari va choraklik statistik hisobotlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Monitoring natijalari asosida bandlik siyosatini optimallashtirish va yangi yo'nalishlar bo'yicha rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ladi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi /

Абдусaidов Акмал Абдувалиевич – независимый исследователь Самаркандского института экономики и сервиса / Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich – Independent Researcher at Samarkand Institute of Economics and Service.

akmal_a85@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0008-8872-050X>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. New York: Free Press, 1980.

2. Rifkin J. The Third Industrial Revolution: How Lateral Power Is Transforming Energy, the Economy, and the World. New York: Palgrave Macmillan, 2011.

3. OECD. Employment Outlook 2023. Paris: OECD Publishing, 2023.

4. World Bank. World Development Report: Digital Dividends. Washington D.C.: World Bank Group, 2021.

5. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum, 2017.

6. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – T.: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.

7. Xudoyberdiyev Z.Y. O'zbekiston mehnat bozorida xizmatlar sektorining rivojlanish tendensiyalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №3. – B. 45–56.

8. Tolipov O., Axmedov S. Xizmat ko'rsatish sohasi modernizatsiyasi va bandlikning o'sish omillari // O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali. – 2022. – №5. – B. 72–80.

9. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. Mehnat bozori ko'rsatkichlari bo'yicha yillik hisobot. – T., 2024.

10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Xizmatlar sektori bo'yicha statistik ma'lumotlar to'plami. – T., 2024.



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz